

**JEROM K. JEROM ASARLARIDA YUMSHATUVCHI
IFODALAR VA ULARNING PRAGMATIK VAZIFALARI**
(“Three Men in a Boat” romani misolida)

Mirakhmedova Zilola Erkinovna

Toshkent davlat transport universiteti

E-mail: zilolamirakhmedova@gmail.com, ORCID:

<https://orcid.org/0009-0006-5180-4844>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz yozuvchisi Jerom K. Jeromning “Three Men in a Boat” asarida qo‘llangan yumshatuvchi ifodalar (evfemizmlar) va ularning pragmatik vazifalari lingvistik va funksional jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot evfemizmlarning lisoniy-kognitiv mohiyatini yoritishga, shuningdek, ularning matn ichida bajaradigan ijtimoiy, psixologik va kommunikativ funksiyalarini aniqlashga qaratilgan. Maqolada evfemizmlarning metaforik, metonimik va perifrastik modellari nazariy va amaliy jihatdan ko‘rib chiqilib, ularning badiiy diskursdagi yumor yaratish, ijtimoiy munosabatlarni yumshatish hamda madaniy kommunikatsiyani ta‘minlashdagi o‘rni asoslab beriladi. Xususan, asarda qo‘llangan “passed away”, “to sleep the long sleep”, “not exactly well” kabi birliklar evfemistik strategiyaning yorqin namunalari sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: evfemizm, yumshatuvchi ifoda, pragmatika, Jerom K. Jerom, “Three Men in a Boat”, kognitiv lingvistika, matn tahlili, yumor, ijtimoiy funksiya, perifraz.

**EUPHEMISTIC EXPRESSIONS AND THEIR PRAGMATIC
FUNCTIONS IN THE WORKS OF JEROME K. JEROME**
(Through the example of the novel “Three Men in a Boat”)

Abstract: This article analyzes euphemistic expressions used in the work “Three Men in a Boat” by the English writer Jerome K. Jerome and their

pragmatic functions from a linguistic and functional perspective. The study aims to illuminate the linguistic-cognitive nature of euphemisms, as well as to identify their social, psychological, and communicative functions within the text. The article theoretically and practically examines metaphorical, metonymic, and periphrastic models of euphemisms, substantiating their role in creating humor, softening social relations, and ensuring cultural communication in literary discourse. In particular, expressions such as “passed away,” “to sleep the long sleep,” and “not exactly well” used in the work are analyzed as vivid examples of euphemistic strategy.

Keywords: euphemism, euphemistic expression, pragmatics, Jerome K. Jerome, “Three Men in a Boat”, cognitive linguistics, text analysis, humor, social function, periphrasis.

ЭВФЕМИСТИЧЕСКИЕ ВЫРАЖЕНИЯ И ИХ ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

ДЖЕРОМА К. ДЖЕРОМА

(На примере романа «Трое в лодке»)

Аннотация: В данной статье анализируются эвфемистические выражения, использованные в произведении английского писателя Джерома К. Джерома «Трое в лодке», а также их прагматические функции с лингвистической и функциональной точек зрения. Исследование направлено на раскрытие лингвокогнитивной сущности эвфемизмов, а также на выявление их социальных, психологических и коммуникативных функций в тексте. В статье теоретически и практически рассматриваются метафорические, метонимические и перифрастические модели эвфемизмов, обосновывается их роль в создании юмора, смягчении социальных отношений и обеспечении культурной коммуникации в художественном дискурсе. В частности, такие выражения, как “passed away”, “to sleep the long sleep”, “not exactly

well”, ispolzuyemye v proizvodnenii, analiziruyutsya kak yarkie primery evfemisticheskoy strategii.

Ключевые слова: эвфемизм, эвфемистическое выражение, прагматика, Джером К. Джером, «Трое в лодке», когнитивная лингвистика, анализ текста, юмор, социальная функция, перифраз.

Kirish: Yumshatuvchi ifodalar, ya’ni evfemizmlar, inson nutq madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo’lib, ular turli ijtimoiy, psixologik hamda kommunikativ vaziyatlarda alohida funksional yuklamaga ega. Evfemizm – bu qo’pol, noqulay yoki ijtimoiy jihatdan sezgir hisoblangan mazmuni muloyim, yumshoq va estetik jihatdan neytral shaklda ifodalash vositasidir. Ingliz mumtoz adabiyotining yorqin namunalaridan biri bo’lgan Jerom K. Jeromning “Three Men in a Boat” (1889) asari o’zining nozik yumori, ijtimoiy satirasi hamda leksik-uslubiy boyligi bilan tilshunoslik tadqiqotlari uchun muhim manba hisoblanadi. Asarda muallif tomonidan qo’llangan evfemistik birliklar nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki pragmatik ma’no yuklovchi diskurs elementlari sifatida ham namoyon bo’ladi.

Zamonaviy tilshunoslikda evfemizmlar faqat leksik birlik sifatida emas, balki pragmatika, kognitiv lingvistika hamda diskurs tahlili doirasida kompleks hodisa sifatida o’rganilmoqda. Yumshatuvchi ifodalarning pragmatik vazifalari, ya’ni ularning nutqiy muloqotdagi maqsadi, ta’sir kuchi hamda ijtimoiy funksiyalari, bugungi kunda tilshunoslikning dolzarb yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Jerom K. Jerom asarida evfemizmlarning qanday shakllanishi hamda ular qanday pragmatik funksiyalarni bajarishini aniqlashdan iboratdir. Shu bilan birga, asarda yumshatuvchi ifodalar orqali muallifning ijtimoiy munosabatlarga, axloqiy me’yorlarga va kommunikativ strategiyalarga munosabati tahlil qilinadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ingliz badiiy adabiyotida, xususan Viktoriya davri nasrida evfemizmlar ijtimoiy normalar, madaniy qadriyatlar hamda sinfiy munosabatlarni aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik hodisa

sifatida qaraladi. Jerom K. Jeromning o‘ziga xos uslubi – ironiya, o‘z-o‘zini masxaralash va muloyim kinoya – evfemizmlarning noodatiy va pragmatik jihatdan murakkab qo‘llanishini yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar tahlili: Evfemizmlarning lingvistik mohiyatini o‘rganish borasida jahon tilshunosligida keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlar evfemizm hodisasining ko‘p qirrali tabiatini, xususan uning semantik, pragmatik va sotsiolingvistik xususiyatlarini ochib beradi. Evfemizm nafaqat leksik birlik sifatida, balki ijtimoiy munosabatlarni yumshatish va madaniy me‘yorlarni ifodalovchi murakkab kommunikativ vosita sifatida talqin qilinadi [2].

Tadqiqotlarda evfemizmlarning semantik va pragmatik aspektlari o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinib, ularning ijtimoiy muloqotdagi funksional vazifalari yoritiladi. Bu yondashuv evfemizmlarni oddiy til hodisasi emas, balki ijtimoiy ong va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi diskursiv mexanizm sifatida ko‘rishga imkon beradi. O‘zbek va ingliz badiiy adabiyoti materiallari asosida amalga oshirilgan qiyosiy tadqiqotlarda evfemizmlarning siyosiy, ijtimoiy hamda shaxsiy sohalarda qo‘llanilishi ta’kidlanadi [1]. Ushbu ishlar evfemizmlarning universal xususiyatlari bilan bir qatorda, ularning milliy-madaniy o‘ziga xosligini ham ochib beradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, evfemizm turli tillarda umumiy kommunikativ strategiya sifatida mavjud bo‘lsa-da, uning ifodalanish shakli madaniy kontekstga bevosita bog‘liqdir.

Kognitiv lingvistika doirasida evfemizmlar metonimik va metaforik modellar asosida o‘rganilib, ularning konseptual asoslari yoritilgan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, evfemizmlar inson ongidagi konseptual tuzilmalar orqali shakllanadi va ma’lum kognitiv jarayonlar natijasida yuzaga keladi [7]. Bu esa evfemizmlarning nafaqat lingvistik, balki kognitiv-pragmatik tabiatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Jerom K. Jerom ijodi ham tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan keng o‘rganilgan. Xususan, “Three Men in a Boat” asarida muallif va narrativ ovoz o‘rtasidagi pragmatik farqlarni tahlil

qilgan tadqiqotlar evfemizmlarning matn ichidagi funksional rolini aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [4]. Ushbu tadqiqotlarda muallifning ironik uslubi, o'z-o'zini kinoya qilish strategiyasi hamda ijtimoiy munosabatlarga nisbatan muloyim yondashuvi evfemistik ifodalarning faol qo'llanishiga zamin yaratishi ko'rsatilgan.

Jerom ijodida yumor va etnik stereotiplarning yumshatilgan ifodasi masalalarini o'rgangan tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga ega. Ular muallifning ijtimoiy masalalarni ochiq tanqid qilmasdan, balki evfemistik va ironik vositalar orqali ifodalashini ta'kidlaydi [5]. Bu esa asarda ijtimoiy tanqidning yumshatilgan, estetik jihatdan qabul qilinadigan shaklda berilishini ko'rsatadi.

Shuningdek, "Three Men in a Boat" asarining tarjima muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar evfemizmlarning interlingvistik uzatilishidagi qiyinchiliklarni yoritadi [6]. Ushbu ishlar yumor, ironia va evfemistik birliklarning tarjimada to'liq semantik va pragmatik ekvivalentini berish murakkabligini ko'rsatadi. Jeromning BBC uchun yozgan asarlari va boshqa ijodiy faoliyati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar esa yozuvchining uslubiy xususiyatlarini, jumladan, muloyim ifoda va yumshatuvchi strategiyalardan foydalanish texnikasini chuqurroq tushunishga imkon beradi [3]. Bu tadqiqotlar Jeromning turli janrlardagi ijodida pragmatik uslubiy birliklarning izchil qo'llanishini asoslaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, evfemizmlar zamonaviy tilshunoslikda muhim tadqiqot obyekti bo'lib, ularni badiiy diskurs, ayniqsa Jerom K. Jerom ijodi kontekstida o'rganish lingvokulturologik va pragmatik jihatdan katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqotda kompleks lingvistik yondashuv asosida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Xususan, matn tahlili, kontekstual tahlil, pragmatik tahlil, qiyosiy-tarixiy tahlil hamda stilistik tahlil metodlari tadqiqotning asosiy metodologik bazasini tashkil etadi. Mazkur

yondashuvlar evfemizmlarning badiiy matndagi funksional va semantik xususiyatlarini har tomonlama yoritishga imkon berdi.

Tadqiqotning asosiy materiali sifatida Jerom K. Jeromning “Three Men in a Boat” asarining ingliz tilidagi asl matni tanlandi. Asar tanlanishiga sabab uning yumoristik, ironik va ijtimoiy-satirik diskursga boyligi bo‘lib, bu esa evfemistik birliklarning keng qo‘llanishiga zamin yaratadi.

Evfemizmlar quyidagi mezonlar asosida ajratib olindi:

muayyan mavzular (o‘lim, kasallik, jismoniy nuqsonlar, ijtimoiy maqom) atrofida qo‘llanilgan yumshatuvchi ifodalar;

ironik yoki komik kontekstda yumshatuvchi pragmatik funksiya bajaruvchi birliklar;

ijtimoiy me‘yorlar, odob-axloq qoidalari va kommunikativ etiketni saqlash maqsadida ishlatilgan ifodalar.

Pragmatik tahlil jarayonida J.L.Ostinning nutq aktlari nazariyasi hamda G.P. Graysning kooperatsiya tamoyili asos qilib olindi. Ushbu nazariyalar evfemizmlarning illokutiv va perlokutiv funksiyalarini aniqlash, shuningdek, ularning muloqotdagi yashirin ma‘nolarini ochib berishda metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Kognitiv tahlil doirasida esa kontseptual metafora va metonimiya nazariyalaridan foydalanildi. Bu yondashuv evfemizmlarning inson ongidagi kontseptual tuzilmalar bilan bog‘liqligini hamda ularning kognitiv-pragmatik mexanizmlar orqali shakllanishini yoritishga yordam berdi. Bundan tashqari, ingliz adabiyotidagi materiallar o‘zbek adabiyoti, xususan G‘afur G‘ulom ijodida uchraydigan evfemistik birliklar bilan qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Ushbu qiyosiy yondashuv evfemizmlarning universal va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar: G‘afur G‘ulom va Jerom K. Jerom ijodiy diskursini qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, har ikki yozuvchi ham evfemizmlardan ijtimoiy tanqidni yumshatish hamda insoniy munosabatlarni badiiy-estetik

shaklda ifodalash vositasi sifatida keng foydalangan. Biroq evfemizmning qo‘llanish strategiyalari, semantik yuklamasi va pragmatik funksiyalari mualliflar ijodiy uslubiga muvofiq sezilarli farqlarga ega.

G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asarida qashshoqlik va ijtimoiy yetishmovchilikni ifodalashda “kambag‘al bo‘lmoq” o‘rniga “qo‘li kaltalik qilmoq”, “non ko‘rmagan” kabi yumshatilgan ifodalar qo‘llaniladi. “Yodgor” asarida esa urush va o‘lim kabi og‘ir mavzular to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki “ketmoq”, “yo‘q bo‘lmoq” singari evfemistik birliklar orqali ifodalanadi. Ushbu birliklar nafaqat leksik, balki chuqur milliy-madaniy semantik yuklamaga ega bo‘lib, o‘zbek xalqining nutq etiketi va axloqiy me‘yorlarini aks ettiradi.

Jerom K. Jeromning “Three Men in a Boat” asarida esa evfemizmlar ko‘proq ingliz jamiyatiga xos ijtimoiy odob, sinfiy ehtiyotkorlik hamda yumoristik effektini kuchaytirish maqsadida qo‘llaniladi. Masalan, quyidagi iborada kasallik va noqulaylik to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, bilvosita ifodalanadi:

“...we were not getting the fresh air we were supposed to be getting...”

Mazkur ifoda pragmatik jihatdan kasallikdan saqlanish yoki sog‘liqni tiklash motivini yashirin tarzda ifodalaydi. Bu holat angliyalik madaniyatga xos ehtiyotkor nutq strategiyasini namoyon etadi.

Asarning bosh qismida qahramonning o‘zini tasvirlashida ironik evfemizm kuzatiladi:

“I had walked into that reading-room a perfectly healthy, happy man. I crawled out a decrepit wreck.”

Bu yerda “decrepit wreck” birligi sog‘lom insonning o‘zini haddan tashqari kasal sifatida tasvirlashini ifodalovchi ironik evfemizm bo‘lib, pragmatik jihatdan yumor va o‘z-o‘zini masxaralash funksiyasini bajaradi.

Shuningdek, uyqu va dam olish bilan bog‘liq holatlarda ham yumshatuvchi ifodalar kuzatiladi:

“Harris said he thought it would be better if we had more rest and less over-exertion.”

Bu yerda “over-exertion” birligi ortiqcha charchoq yoki dangasalikni yumshatilgan shaklda ifodalovchi evfemistik konstruktsiya sifatida xizmat qiladi. G‘afur G‘ulom ijodida ham shunga o‘xshash pragmatik strategiya mavjud bo‘lib, “vaqtim yo‘q”, “sog‘liqqa ziyoni bor” kabi ifodalar ijtimoiy bahona vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy maqom va shaxsiy o‘zini baholash kontekstida Jerom quyidagi ifodani qo‘llaydi:

“Uncle Podger was a man who could not do a simple act without turning it into a matter of national importance.”

Bu iborada “matter of national importance” birligi oddiy ishni haddan tashqari muhimlashtirishni ifodalovchi ironik evfemizm bo‘lib, sinfiy o‘zini ko‘rsatish tendensiyasini satirik tarzda ochib beradi.

Tabiat va hayvonlar tasvirida ham antropomorfik evfemizmlar qo‘llaniladi:

“The cat was not what you might call a demonstrative cat. She made no sign of having seen the dog.”

Bu ifoda mushukning xatti-harakatlarini insoniy xususiyatlar orqali tasvirlab, yumoristik effekt yaratadi. G‘afur G‘ulomda esa “qo‘shnilar bilan munosabatini yo‘qotdi” kabi ifodalar ijtimoiy nizolarni yumshatib beruvchi evfemizm sifatida xizmat qiladi.

Metonimik evfemizmlar tahlili shuni ko‘rsatadiki [7], Jerom asarida kasallik va jismoniy holatni ifodalashda bilvosita semantik konstruktsiyalar keng qo‘llaniladi:

“I felt I was going down.”

Bu ifoda kasallik yoki holsizlikni pastga harakat metaforasi orqali ifodalovchi metonimik evfemizm hisoblanadi. G‘afur G‘ulom ijodida ham “oyoqdan qoldi” kabi birliklar shu tipologiyaga kiradi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Jerom K. Jerom evfemizmlardan asosan yumoristik effekt yaratish, ijtimoiy odobni saqlash va sinfiy stereotiplarni yumshoq tarzda ifodalash uchun foydalangan. G'afur G'ulom esa evfemizmlarni ko'proq ijtimoiy tanqidni yumshatish, xalq hayotini realistlik, ammo estetik jihatdan muloyim tarzda tasvirlash vositasi sifatida qo'llagan.

Shunga qaramay, har ikki muallif ijodida evfemizmlar quyidagi umumiy pragmatik funksiyalarni bajaradi:

- (1) noqulay va tabu mavzulardan qochish;
- (2) ijtimoiy munosabatlarni yumshatish;
- (3) kommunikativ yaqinlikni ta'minlash;
- (4) madaniy va axloqiy me'yorlarni saqlash.

Xulosa: Jerom K. Jeromning "Three Men in a Boat" asarida evfemizmlar keng qo'llanilib, ular asarning badiiy-estetik va pragmatik qiymatini oshiruvchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu birliklar ijtimoiy odobni saqlash, yumor yaratish va ijtimoiy tanqidni yumshoq ifodalash kabi bir nechta pragmatik vazifalarni bajaradi. G'afur G'ulom va Jerom K. Jerom asarlarini qiyosiy tahlil qilish evfemizmlarning universal funksiyalarga ega ekanini, biroq ularning shakllanishi va qo'llanishi madaniy-tarixiy kontekstga bog'liqligini ko'rsatdi. Ingliz adabiyotida ular ko'proq ijtimoiy ehtiyotkorlik va sinfiy munosabatlarni ifodalasa, o'zbek adabiyotida milliy madaniyat va xalq turmushini yumshoq tasvirlashga xizmat qiladi. Pragmatik tahlil evfemizmlarning indirekt nutq aktlari, ironik ifoda va ijtimoiy yaqinlikni ta'minlovchi vosita sifatida ishlashini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari evfemizmlarni tarjima qilishda ularning pragmatik va madaniy xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rustam o'g'li R. O. Ingliz va o'zbek badiiy adabiyotida evfemizmlar: semantikasi va pragmatik effekti // Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali. – 2026. – T. 8. – №. 2. – B. 321-327.
2. Usmonova D. Jahon tilshunosligida evfemizm hodisasi va uning nazariy talqini // Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 01.
3. Sehmy D. S. Jerome at the BBC // The European Journal of Humour Research. – 2014. – Vol. 2. – №. 2. – P. 32-53.
4. Cedar T. Whose line is it anyway? Three pragmatic cues for distinguishing between the implied-author and narrative voices: The case of Three Men in a Boat by Jerome K. Jerome // The Discourse of Indirectness: Cues, voices and functions. – John Benjamins Publishing Company, 2020. – P. 97-118.
5. Pusnei I. Ethnic stereotypes mockery in Jerome's humour // ACROSS. – 2018. – Vol. 1. – №. 1. – P. 40-47.
6. Pusnei-Sirbu I. Aspects of humour (un)translatability. Case study: Three Men in a Boat and Three Men on the Bummel // Translation Studies: Retrospective and Prospective Views. – 2018. – Vol. 21. – P. 181-193.
7. Tokar A. Metonymic euphemisms from a cognitive linguistic point of view // Meaning, Frames, and Conceptual Representation. Studies in Language and Cognition. – 2015. – Vol. 2. – P. 237-264.

